



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HUQUQIY MUNOSABATLAR VA UNING TURLARI

Mamarajabov Fazliddin Abdurazzoq o'g'li

Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi

Davlat Bojaxona qo'mitasi Bojaxona instituti,

1-kurs kursanti, fazliddinmamarajabov571@gmail.com

Ilmiy rahbar: Bojaxona instituti dotsenti Sattarov Dilshod Yuldashevich

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyat hayotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ba'zi munosabatlarni shu jumladan huquqiy munosabatlar va ularning turlari,xususiyatlari, mazmun mohiyati haqida, ushbu munosabatlarda yuridik faktlar qanday o'rinn egallaydi va uning turlari haqida fikr yuritiladi.

Annotation: This article discusses some of the relationships that can occur in the life of society, including legal relations and their types, features, essence, what role of legal facts in these relations and its types.

Аннотация: В данной статье рассматриваются некоторые отношения, которые могут иметь место в жизни общества, в том числе правоотношения и их виды, особенности, сущность, какова роль правовых фактов в этих отношениях и их виды.

Kalit so'zlar: huquqiy munosabat,huquqiy norma,yuridik fakt, yuridik hodisalar, yuridik hodisalar, yuridik harakatlar,hodisalar ,harakatlar, yuridik aktlar.

Ключевые слова: правоотношение, правовая норма, юридический факт, правовые события, правовые события, правовые события, правовые действия, события, действия, правовые акты.

Keywords: legal relationship,legal norm,legal fact, legal events, legal events, legal events, legal actions,events ,actions, legal acts.

Huquqiy munosabatlar -ijtimoiy munosabatlar,ya'ni kishilar o'rtasidagi faoliyat, xatti- harakatlar bilan uzviy bog'liq, bo'lgan munosabatlirdir. Bu odamlar



bilan moddiy buyumlar o'rtasidagi aloqalar huquqiy munosabtlar emas. Biron narsaning egasi unga nisbatan huquqlar yig'indisiga ega, biroq: bu huquqlar boshqa kishilar bilan munosabatlarga kirishgandagina jonlanadi: mulkdor kimgadir narsani sotishi, sovg'a qilishi yoki foydalanib turishga berishi mumkin. Shu bilan birga, ulardan o'zining mulk huquqiga rioya etishlarini talab qiladi.

Jamiyat hayotida kishilar va ularning turli – tuman tashkilotlari o'rtasida ko'plab moddiy, ma'naviy, siyosiy, madaniy va boshqa munosabatlar mavjud bo'ladi. Ushbu munosabatlar ma'rifiy jamiyatda axloqiy, diniy, korporativ va boshqa ijtimoiy normalar bilan tartibga solinadi, shakllantiriladi va yo'naltiriladi. Ijtimoiy munosabatlar asosan huquq normalari bilan tartibga solinadi. Har qanday ijtimoiy munosabatlar huquq normalari bilan tartibga solinadi.

Huquq normasi – davlat tomonidan o'rnatiladigan yoki ma'qullanadigan, muayyan shaklda ifodalanadigan, ijtimoiy munosabatni tartibga solishga qaratilgan umummajburiy xulq – atvor qoidasi. Huquq normalari o'z vazifa va funksiyalarini huquqiy munosabatlar orqali amalga oshiradi. Ozbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi [1].

Huquqiy munosabatlar yuridik normalar asosida kelib chiqadi. Lekin, huquqiy normalar o'z - o'zidan, bevosita huquqiy munosbatlarni paydo qilmaydi. Normalar faqatgina huquqiy munosabatlar vujudga kelishining muayyan shartlarini, muayyan vaziyatlarni va holatlarni belgilab beradi. Yuridik faktlar muayyan hayotiy hodisalar bilan bog'liq hamda huquqiy munosabatlarni mavjud bo'lish asosi hisoblanadi.

Ijtimoiy ta'minotga oid huquqiy munosabatlar muayyan yuridik faktlar (huquqiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi harakatlar va voqeal-hodisalar) yuz berishi bilan bog'liq holda sodir bo'ladi, o'zgaradi yoki barham topadi.

Ijtimoiy ta'minot olish huquqlarining yuzaga kelishi, o'zgarib qolishi yoki barham topishi ham yuridik faktlar bilan bog'liqdir. Masalan, fuqoroning qonunda belgilangan yoshga yetishi fakti yoshga doir pensiya olish huquqining paydo bo'lishiga yoki boquvchisini yo'qotganlik huquqining barham topishiga (shaxsni 18



yoshga yetishi bilan) sabab bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisaning yuz berishi tufayli shaxsni nogiron deb topilishi nogironlik pensiyasi olish huquqining yuzaga kelishiga olib keladi. Qisqacha qilib aytganda yuridik faktlar huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishi, o'zgarishi va tugatilishi uchun shartlardir.

Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilash haqidagi ishlar bo'yicha qonuniy, asosli vaadolatli hal qiluv qarorlarini chiqarish fuqarolarning huquqlarini himoya qilishni ta'minlaydi. Sudlar fuqarolarni va davlatni qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari himoyasini ta'minlab, bu ishlarni asosan to'g'ri hal qilmoqdalar [2].

Yuridik faktlar, ularning mohiyati, ro'yxati tegishli huquq normalari bilan belgilanadi. Fuqarolik qonunchiligi normasi bunga misol bo'la oladi, unda vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaro paydo bo'lgan yoki uning turgan joyi aniqlangan taqdirda, tegishli qaror sud tomonidan bekor qilinadi. Bu erda vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaroning paydo bo'lishi va uning joylashgan joyini aniqlash uning o'limi to'g'risidagi qarorni sud tomonidan bekor qilinishi kabi huquqiy oqibatlarga olib keladigan o'ziga xos hayotiy holatlardir.

Huquqiy munosabatlar kabi yuridik faktlar ham turli asoslarga ko'ra tasniflanadi.

Kishilar irodasiga bog`liq yoki bog`liq emasligiga qarab yuridik faktlar yuridik hodisalar va yuridik harakatlarga bo`linadi. Huquqiy o'zgarishlar – Bu sodir bo'lishi odamlarning xohish-irodasiga bog'liq bo'limgan hayotiy holatlardir. Bularga quyidagilar kiradi: tug'ilish, odamning tabiiy o'limi, tabiiy ofat va boshqalar.

Huquqiy harakatlar – Bu odamlarning xohishiga ko'ra yuzaga keladigan hayotiy holatlar. Bularga shaxslarning yuridik ahamiyatga ega bo'lgan turli harakatlari kiradi. Miqdoriy tarkibiga ko'ra oddiy va murakkab yuridik faktlar ajratiladi.

Oddiy yuridik fakt huquqiy oqibatlarga olib keladigan yagona holat. Masalan, ishdan bo'shatish yaxshi sabablar, ko'chani belgilanmagan joyda kesib o'tish va hokazo. Murakkab yuridik fakt ikki yoki undan ortiq hayotiy holatlardan iborat bo'lib, ularning har biri yoki birgalikda huquqiy oqibatlarga olib keladi. Oila huquqida



Ushbu soha o'ziga xos yuridik faktlarga ega. Shunday qilib, oila huquqi qarindoshlik toifasi - bir-biridan yoki biron bir umumiy ajdoddan kelib chiqqan shaxslarning qon munosabatlari bilan ishlaydi. Ushbu mulk huquqni yaratuvchi yuridik fakt sifatida harakat qilishi mumkin. Masalan, ota-onalar qonun bo'yicha farzandlarini boqishlari shart. Shuningdek, qarindoshlik munosabatlari huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Rossiyada birodarlar o'rtasidagi nikoh taqiqlangan. Bundan tashqari, ichida oila qonunida mulk tushunchasi mavjud. Xotin va arning qarindoshlari o'rtasidagi munosabatlar va aksincha, tushuniladi. Mulk faqat fuqarolik-huquqiy munosabatlarda (xususan, mulkiy munosabatlarda), garchi u oilaviy munosabatlar bilan bevosita bog'liq bo'lsa ham, yuridik faktdir.

Yuridik faktlar ikki asosiy guruhga bo'linadi: yuridik hodisalar va yuridik harakatlarga bo'linadi.

Hodisalar - tabiat va jamiyatdagi shunday faktlarki, ularning sodir bo'lishi kishilarning xohish irodasi, ehtiyojiga bog'liq emas. Masalan, yer qimirlashi, shaxsning tug'ilishi, shaxsning vafot etishi, yong'in sodir bo'lishi, sel kelishi kabi tabiiy ofatlar va boshqalar. Bunday hodisalar huquq bilan tartibga solinuvchi ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun ular yuridik faktlar deb tan olinadi. Odadta bunday hodisalar huquqiy munosabatlarning ob'yeqtiga ta'sir etadi. Masalan, yong'in sababli uy - joyiga zarar yetgan shaxs bilan tegishli davlat idoralari yoki sug'urta tashkilotlari o'rtasida huquqiy munosabat kelib chiqadi.

Harakatlar - huquqiy munosabat ishtirokchilari hohish – irodasi bilan bog'liq faktlardir. Ular bir necha turlarga ajraladi: huquqqa muvofiq va huquqqa xilof harakatlardir. Qonun normalari asosida vujudga keladigan hamda shu normalar bilan tartibga solinadigan harakatlar huquqiy harakatlar yoki huquqqa muvofiq harakatlar deb ataladi. Huquq normalari talablariga zid, ularni buzuvchi harakatlar huquqqa xilof yoki g'ayriqonunij harakatlar hisoblanadi. Huquqqa zid harakatlar mazmun va xususiyatiga ko'ra: jinoiy, ma'muriy, fuqarolik va intizomiy – huquqiy bo'limgan harakatlarga bo'linadi. Huquqiy bo'limgan harakat qonunga binoan yuridik javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Huquqqa mos harakatlar ikki turga bo'linadi:



- Yuridik aktlar,
- Yuridik xatti – harakat.

Yuridik aktlarda huquqqa muvofiq harakatlar muayyan huquqiy oqibatlarni vujudga keltirishi nazarda tutilib sodir etiladi, lekin bunday oqibatlar qonunda nazarda tutilganligi sababli kelib chiqadi. Masalan, ijodkor ilmiy yoki badiiy asar yaratdi, bunda ijodkorning huquqiy oqibatlarni vujudga keltirishni xohlagani yoki xohlamaganidan qat’iy nazar, qonun mualliflik huquqiy munosabatlarni vujudga kelishini shart qilib qo’ygan. Demak, ijod mahsulining yaratilishi – yuridik faktidir [3].

Yuridik aktlarning eng muhim xususiyati shundan iboratki, ularda yuridik ahamiyatga molik asosiy sharti – yuridik oqibatlarni ko’zlab ish ko’rishdir.

Umuman olganda, O’zbekiston Respublikasida huquqiy munosabatlar jamiyatdagi ijtimoiy tartibni saqlash, huquqlarni himoya qilish va huquqiy adolatni ta’minlash vazifasini bajaradi. Ushbu munosabatlar O’zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, fuqorolik, ma’muriy, shaxsiy mehnat ,jinoyat kodekslarida va ulardagи qonunlar asosida yuqoridaq sohalarni tartibga soladi.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy munosabatlar fuqarolar, jamoat birlashmalar, davlat organlari va boshqa yuridik shaxslar o’rtasidagi turli – tuman aloqalarni tartibga solish orqali jamiyatda qonuniylikni mustahkamlash, qonun ustuvorligini qaror toptirish, shuningdek, inson, jamiyat va davlat manfaatlarini huquqiy jihatdan ta’minlashga samarali xizmat qiladi. Yuridik faktlar huquqiy munosabatlar o’rnatishning muhim vositasi bo’lib xizmat qiladi. Ular, odatda, huquqiy munosabat sub’yektlarining manfaatlariga mos keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Adolat. 2023 yil.
2. “Yuridik ahamiyatga ega bo’lgan faktlarni belgilash haqidagi ishlar bo’yicha sud amaliyoti to’g’risida.” Oliy sud Plenumi qarori.
3. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. X.T. Odilqoriyev. “Adolat”. 2018 y.